

“IFRS” HOMLI
KONFERENCIYA

CONFERENCE “GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC

TRENDS”

2nd FORUM OF
DEVELOPMENT
STRATEGY:
GLOBAL AND
NATIONAL
ECONOMIC
TRENDS



TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS

1 йўналиш: ГЛОБАЛ
ИҚТИСОДИЁТНИ
РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ
ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА
ИСТИҚБОЛЛИ ЙўНАЛИШЛАРИ
“Глобал ва миллий
иқтисодий трендлари”

CONFERENCE

19-20
OCTOBER

ФОРУМ

PARALLEL CONFERENCES
“NEW2AN, ICFNDS
AND ICDSIS”

2nd FORUM OF
DEVELOPMENT
STRATEGY:
GLOBAL AND
NATIONAL
ECONOMIC
TRENDS

“NEW2AN, ICFNDS AND ICDSIS”

CONFERENCE
“IFRS”

GLOBAL
ECONOMIC
TRENDS

2nd FORUM OF
DEVELOPMENT
STRATEGY:

“IFRS”

2nd FORUM
DEVELOPMENT

RAQAMLI IQTISODIYOT VA AXBOROT TEKNOLOGIYALARI

2023

ELEKTRON ILMIY JURNALI / MAXSUS SON

- Innovation in
education

ФОРУМ

19-20 OCTOBER

PARALLEL CONFERENCES

“NEW2AN, ICFNDS

AND ICDSIS”

РАҚАМЛИ ИҚТИСО
АХБОРОТ ТЕХНОЛ
ВА ТАЪЛИМНИНГ
ИСТИҚБОЛЛИ ЙўН
“NEW2AN, ICFNDS,
номли параллель
конференциялар

- Macroeconomic Stability
- Social Welfare
- Human Capital
- Decent Employment
- World Economy
- Gender Equality
- Industry 4.0
- Sustainable Agriculture



РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ВА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ
DIGITAL ECONOMY AND INFORMATION TECHNOLOGY
ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА И ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

Электрон илмий журнал | Electronic scientific journal

МУАССИС | FOUNDER

Тошкент давлат иқтисодиёт университети
Tashkent State University of Economics

ТАҲРИР КЕНГАШИ РАИСИ | CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD

Шарипов Конгратбой Аvezимбетович — т.ф.д., профессор
Sharipov Kongratboy Avezimbetovich — doctor of technical sciences, professor

БОШ МУҲАРРИР | EDITOR-IN-CHIEF

Абдуллаев Мунис Курбонович – и.ф.ф.д. (PhD), доцент
Abdullayev Munis Kurbonovich – PhD, docent

БОШ МУҲАРРИР ЎРИНБОСАРИ | DEPUTY CHIEF EDITOR

Вафоев Бобуржон Расулович – и.ф.н., доцент
Vafoev Boburjon Rasulovich – PhD, docent

МАСЪУЛ КОТИБ | EXECUTIVE SECRETARY

Л.А. Аблазов | L.A. Ablazov

ВЕБ-АДМИНИСТРАТОР | WEBMASTERS:

Н.Я. Нурсаидов, А.Ш. Махмудов | N.Ya. Nursaidov, A.Sh. Makhmudov

ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ | EDITORIAL BOARD

С.С. Гулямов – и.ф.д., академик.
Б.А. Бегалов – и.ф.д., профессор.
М.П. Эшов – и.ф.д., профессор.
О.Қ. Абдурахмонов – и.ф.д., доцент.
К.Б. Ахмеджанов – и.ф.д., профессор.
И.М. Алимардонов – и.ф.д., доцент.
Р. Салиходжаев – и.ф.б.ф.д. (PhD).
Проф. Холназар Амонов (Чехия).
Проф. Карина Татек Банетти (Чехия).
Проф. О. Абдураззаков (Германия).
Проф. Эко Шри Маргианти (Индонезия).
Проф. Д.М. Назаров (Россия).
Проф. Н.М. Сурнина (Россия).
Проф. Марк Розенбаум (АҚШ).
PhD. Абдул-Рашид (Афғонистон).
PhD. Аҳмед Моҳамед Азиз Исмоил (Миср).

PhD. Беҳзод Саидов (АҚШ).
PhD. Умид Ахмедов (Дания Қироллиги).
А.А. Исмаилов – и.ф.д., профессор.
И.Е. Жуковская – и.ф.д., профессор.
Т.С. Қўчқоров – и.ф.д., профессор.
Р.А. Дадабаева – и.ф.н., доцент.
Ш.И. Хашимходжаев – и.ф.н., доцент.
А.А. Абидов – т.ф.н., доцент.
И.М. Абдуллаева – и.ф.н., доцент.
Н.Б. Абдусаломова – и.ф.д., доцент.
Ш.С. Эгамбердиев – и.ф.б.ф.д. (PhD).
Р.Х. Алимов – и.ф.д., профессор.
А.У. Қобилов – и.ф.н., доцент.
Р.Х. Насимов – т.ф.б.ф.д. (PhD).
С.С. Қулматова – и.ф.б.ф.д. (PhD).

МУНДАРИЖА:

Шарипов К.А., Ишназаров А.И.	ИҚТИСОДИЙ ЎСИШГА ИНВЕСТИЦИЯ ОҚИМЛАРИ ТАЪСИРИНИ ЭКОНОМЕТРИК ТАДҚИҚ ҚИЛИШ	6
Eshov M.P., Nasirkhodjaeva D.S.	IMPACT OF THE DEVELOPMENT DIGITAL ECONOMY ON THE SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE COUNTRY	14
Abdurahmanova G.Q., Mirzaliyev S.M.	OLIV TA'LIM TRANSFORMATSIYASINING TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMLARI	25
Гулямов С.С., Шермухамедов А.Т.	ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ	28
Abdullayev M.K., Qulmatova S.S.	LOYIHALASH JARAYONLARIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHDA DIZAYN MUAMMOLARI	34
Абидов А.А.	ДИАГНОСТИРОВАНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ В УСЛОВИЯХ ВОЗМУЩАЮЩЕГО ВОЗДЕЙСТВИЯ СРЕДЫ	40
Юлдашев А.А.	ЛОГИСТИКА СОҲАСИДА БЛОКЧЕЙН ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ ҚЎЛЛАШ САМАРАДОРЛИГИ	47
Yakubova Sh.Sh.	DIGITAL DEVELOPMENT AND THE NATURE OF DIGITAL ASSETS	56
Ergashodjayeva Sh.Dj.	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XARIDORLAR MA'LUMOTLARI MAXFIYLIGINI TA'MINLASH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	64
Xashimxodjayev Sh.I., Zhukovskaya I.E.	DIGITAL TECHNOLOGIES ARE A STRONG BASIS FOR THE SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE COUNTRY	72
Амридинова Д.Т., Курбанова С.А.	ЦИФРОВАЯ ЭКАНОМИКА И ОНЛАЙН ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	79
Fayziyeva Kh., Tursunov Kh., Khidirova M., Kulmanov T., Zikriyoev A.	GROWING UP IN A CONNECTED WORLD: INTERNET USAGE DYNAMIC IS DIGITAL AGE OR HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT?	88
Fayziyeva M.X.	TIJORAT BANKLARI TAKLIF ETGAN RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI BAHOLASH	104
Qobilov A.O', Abdulaxatov M.M., Rajabov Sh.B., Zokirov S.Z.	ASSOTSIATIV QOIDALAR VA BOZOR SAVATLARINING TAHLILI	115
Ризакулов Ш.Ш.	БЛОКЧЕЙН ТЕХНОЛОГИИ В ЭКОНОМИКЕ: НА ПРИМЕРЕ ЭЛЕКТРОННОГО ПРАВИТЕЛЬСТВО	121
Назарова Р.Р., Нигматуллаева Г.Н.	СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ЭЛЕКТРОЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА	126
Meyliev O.R., Gofurova K.X.	THE ROLE OF ELECTRONIC COMMERCE IN THE DIGITAL ECONOMY	132

Ma'murov B.X.	RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA HUDUDLAR IQTISODIYOTI TARKIBIY TUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISHNING MOHIYATI VA UNING OMILLARI	142
Гаипов Ж.Б.	ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ ПЛАТЕЖНЫХ СИСТЕМ НА ПРИБЫЛЬНОСТЬ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ	150
Maxmudov S.B.	MILLIY IQTISODIYOTDA EKSPORT AMALIYOTIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK TAHLILINI BAHOLASH ...	160
Nursaidov N.Y., Vafoev B.R.	PROBLEM OF LIMITED ACCESS TO THE INTERNET IN MOBILE LEARNING	172
Хидирова Б.И.	РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИ ШАКЛЛАНТИРИШГА НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР	179
Xalilova N.K.	O'ZBEKISTON SHAROITIDA XARIDORLARNI BOSHQARISH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	187
Рахматова Ш.О.	РАҚАМЛИ ТРАНСФОРМАЦИЯ ШАРОИТИДА БИЗНЕСНИНГ ҚЎШИЛГАН ҚИЙМАТИНИ БАҲОЛАШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	196
Axmedova S.I.	RAQAMLI IQTISODIYOTDA SANOAT KORXONALARINING ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	203
Мирзарахимова А.Б.	СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ТИЗИМИНИ РАҚАМЛАШТИРИШДА ЭЛЕКТРОН ТИББИЙ ЁЗУВЛАРНИНГ РОЛИ	209
Abdurakhmonov A.A.	O'ZBEKISTONDA RAQAMLASHTIRISH TENDENSIYALARI VA UNDAGI MAVJUD MUAMMOLAR	215
Abduraxmanova Z.T.	O'ZBEKISTONDA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISHNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYALARNING O'RNI	223
Mustafakulov O'U.	STATISTIKA TIZIMIDAGI RAQAMLI PLATFORMALARNI BAHOLASH VA ULARNI TANLASH	232
Tal'atova D.B.	RAQAMLI TENGSIZLIKNI BARQARORLASHTIRISHNING IQTISODIY O'SISHDAGI O'RNI	238
Nabiyeva F.O.	RAQAMLI BANKING: QIYINCHILIKLAR, RIVOJLANAYOTGAN TEXNOLOGIYA TENDENSIYALARI VA KELAJAKDAGI TADQIQOTLAR	244
Yax'yayev O.Y.	"JUST IN TIME" XALQARO MENEJMENT MODEL, O'RGANILISHI, AMALIYOTI, RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI	254
Yuldashov I.S., Ro'ziev N.I.	RAHBARNING BOSHQARUV KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH MEKANIZMLARINI O'RGANISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	260
Тўраева Н.О.	КИЧИК БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЖИХАТЛАРИ	265
Muzaffarova D.M.	TASHKILOTNING FUNKSIONAL OPERATSIYALARINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISH YO'LLARI	275

Rustamova M.M.	KOTLIN TILIDA YARATILGAN XIZMAT SIFATINI BAHOLOVCHI “SAFE MOBILE” ILOVASI	285
Zikirullaeva N.	THE ROLE OF GOVERNMENT POLICIES IN ATTRACTING DIRECT FOREIGN INVESTMENTS	294
Anvarova M.M.	RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONINING KICHIK VA O‘RTA BIZNES KORXONALARIGA ASOSIY TA‘SIRI	305
Parpieva R.A., Norboyeva N.E., Anvarova M.M.	IMPROVING MEDIA LITERACY USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN PROFESSIONAL EDUCATION	311

РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ВА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ
DIGITAL ECONOMY AND INFORMATION TECHNOLOGY
ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА И ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

ЭЛЕКТРОН ИЛМИЙ ЖУРНАЛ

Мазкур электрон илмий журнал Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 19 декабрдаги “Оммавий ахборот ва коммуникациялар соҳасида давлат хизматлари кўрсатишнинг айрим маъмурий регламентларини тасдиқлаш тўғрисида”ги 1017-сонли қарорида белгиланган вазифалардан келиб чиқиб, Тошкент давлат иқтисодиёт университети томонидан 2021 йил март ойида таъсис этилган ҳамда халқаро интернет тармоғига жойлаштирилган.

This electronic scientific journal was established by the Tashkent State University of Economics in March 2021, based on the tasks defined in the decision of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 19, 2019 No. 1017 «On approval of some administrative regulations for the provision of public services in the field of public information and communications» posted on the internet.

Нашр қилинаётган “Рақамли иқтисодиёт ва ахборот технологиялари” электрон, илмий журнали Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 31 январдаги 332/6-сон қарори билан Иқтисодиёт фанлари бўйича “Фан доктори” илмий даражасига талабгорларнинг диссертация ишлари, илмий натижалари юзасидан илмий мақолалар эълон қилиниши лозим бўлган Республика илмий журналлари рўйхатига киритилган.

The electronic scientific journal “Digital economy and information technologies” published by the decision of the Higher Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated January 31, 2023 No. 332/6 announces scientific articles on the scientific results of dissertations of candidates for the degree of Doctor of Science in «Economic Sciences» included in the list of republican scientific journals that should be published.

Журналнинг интернет ахборот тармоғидаги манзили:

<https://dgeconomy.tsue.uz/jurnal>

The address of the journal on the internet:

<https://dgeconomy.tsue.uz/jurnal>

RAQAMLI TENGSIZLIKNI BARQARORLASHTIRISHNING IQTISODIY O‘SHIDAGI O‘RNI

Tal‘atova Diyora Boxodir qizi
KIUT o‘qituvchi, mustaqil tadqiqotchi

Annotasiya. Raqamli texnologiyalarni iqtisodiyotning barcha jabhalariga tadbiq etilishi yangi muammoni – hududlararo raqamli tengsizlikni keltirib chiqardi. Raqamli tengsizlik oqibatida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy natijalarning oldini olish olimlar tomonidan chuqur izlanishlarni va raqamli tengsizlikni keltirib chiqaruvchi ko‘rsatkichlarning chuqur qiyosiy tahlilini talab etadi. Maqolada raqamli tengsizlik muammolari O‘zbekiston hududlari kesimida o‘rganib chiqildi. Bu muammoni bartaraf etish uchun davlat tomonidan qo‘llanilayotgan dasturlar muhokama qilingan. Shu bilan birgalikda aholining raqamli savodxonligi indeksi, internet foydalanuvchilar soni va korxonalarining raqamli xizmatlardan foydalanish ko‘rsatkichlari diagrammalarda tasvirlangan va tahlil qilingan. Tahlil ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, raqamlashtirish jarayoni jadal rivojlanayotgan va rivojlanish bo‘yicha ortda qolayotgan hududlar tendensiyalari aniqlangan.

Tayanch so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamlashtirish, raqamli tengsizlik, raqamli savodxonlik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), Internet tarmog‘i.

Kirish:

Raqamli texnologiyalarning hayotning barcha jabhalariga jadal tatbiq etilishi iqtisodiy o‘shish va taraqqiyotning yangi imkoniyatlari paydo bo‘lishiga, ijtimoiy jarayonlarning takomillashishiga va aholi turmush sifatining yaxshilanishiga xizmat qilmoqda. Biroq, bu bilan birga jamiyat taraqqiyotiga yangi tahdidlar ham paydo bo‘lmoqda. Iqtisodiy rivojlanish paradigmasining transformatsiyasi uzoq muddatli jarayon bo‘lib, ijtimoiy munosabatlarning o‘zgarishini, yangi qadriyatlarining paydo bo‘lishini va mutlaqo boshqa bilimlarning shakllanishini taqozo etadi. Haqiqatdan ham, yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek, raqamlashtirishsiz natija ham, rivojlanish ham bo‘lmaydi [1].

Rivojlangan mamlakatlarda raqamli texnologiyalarni rivojlantirish bo‘yicha turli dasturlar ishlab chiqilgan (Buyuk Britaniyada “Raqamli iqtisodiyot to‘g‘risida”gi qonun⁹³, Germaniyada “Industrie 4.0” dasturi⁹⁴, Fransiyada “Plan France Numerique” dasturi⁹⁵, Yevropa Ittifoqida “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish dasturi”⁹⁶ va boshqalar). Shu jumladan, O‘zbekistonda ham axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va iqtisodiyotning turli tarmoqlariga tadbiq etish bo‘yicha “Raqamli O‘zbekiston-2030”⁹⁷ strategiyasi ishlab chiqilgan. Ko‘p hollarda bunday strategiyalar global yondashuv asosida tuziladi, biroq raqamlashtirish jarayonini hududlar kesimida o‘rganishga ko‘proq e’tibor qaratish lozim.

Hududlarning iqtisodiy rivojlanishidagi nomutanosibliklarning mavjudligi raqamli texnologiyalarning turmush faoliyatining barcha sohalariga kirib borishida namoyon

⁹³ Digital Economy Act 2010. URL: <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2010/24/contents> (kirish sanasi: 09.08.2023).

⁹⁴ Germany: Industrie 4.0. URL: https://ati.ec.europa.eu/sites/default/files/2020-06/DTM_Industrie%204.0_DE.pdf (kirish sanasi: 09.08.2023).

⁹⁵ Plan France Numerique. URL: <https://www.innover-en-france.com> (kirish sanasi: 09.08.2023).

⁹⁶ EU Digital. URL: <https://eufordigital.eu/ru/discover-eu/eu-digital-strategy> (kirish sanasi: 09.08.2023).

⁹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son. Manba: www.lex.uz

bo'ladi, bu esa raqamli tengsizlik darajasining oshishiga olib keladi. Raqamlashtirishning muhim salbiy oqibatlaridan biri bu yangi turdagi raqamli tengsizlikning paydo bo'lishidir. Bu muammoni chuqur o'rganish kerak: mintaqaviy nomutanosibliklarning sabablari, axborotdan foydalanishdagi tengsizliklar va AKTdan foydalanish imkoniyatlari haqida tushunchaga ega bo'lish zarur. Bu vaziyatni har tomonlama ko'rish va raqamli tafovutning yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarining oldini olish, raqamli tafovutni bartaraf etish bo'yicha samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish, shuningdek, iqtisodiy o'sishning qo'shimcha manbalarini faollashtirish imkonini beradi. Ushbu maqolaning maqsadi ekonometrik vositalar yordamida raqamli tengsizlikni keltirib chiqaruvchi ko'rsatkichlarni aniqlashdir. Tadqiqotning muhim jihati, raqamli tafovutning salbiy oqibatlarini oldini olish va uni keltirib chiqaruvchi manbalarga qarshi kurashishdan iborat.

Raqamli tengsizlik dolzarb masala bo'lsa-da, uning manbalarini o'rganuvchi kam empirik tadqiqotlar olib borilgan va ular asosan nazariy jihatlariga bag'ishlangan. Raqamli tengsizlikning asosiy sabablari quyidagilardir: yuqori darajadagi aholining ijtimoiy tabaqalanishi, chekka hududlardagi raqamli infratuzilmalarning yuqori narxdaligi va sifatning talabga javob bermasligi, chekka hududlarda raqamli mahsulotlar va xizmatlarning shaharlarga nisbatan narxlarning yuqoriligi va boshqalar. Texnik jihatdan qulaylik masalalarini hal qilish hududlarni raqamlashtirishning zaruriy sharti hisoblanadi, ammo buning o'zi yetarli emas, chunki aholini raqamlashtirish bir qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishga ham bog'liq. Zamonaviy davrda AKT ijtimoiy infratuzilmaning muhim elementi hisoblanib, alohida ijtimoiy ahamiyatga ega.

Bugungi kunda milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida o'rtirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi asosida yurtboshimiz farmoniga binoan 2023-yil 11-sentabrda "O'zbekiston-2030"⁹⁸ strategiyasi tasdiqlandi. Unga ko'ra, raqamli texnologiyalarni rivojlantirgan holda, mamlakatni mintaqaviy "IT-HUB" ga aylantirish chora-tadbirlari doirasida barcha aholi punktlarini internet bilan turli qamrab olish va uning tezligini 10 barobar oshirish, xalqaro internetga ulanish tezligini 500 Gbit/s.ga yetkazish, optik tolali va keng polosali ma'lumot uzatish tarmoqlarining qamrovini 100% ga yetkazish kabi va yana ko'plab boshqa ishlar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, raqamli tengsizlikni oldini olish va iqtisodiyotning har bir sektorida raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida 2020-yil 5-oktabrda tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasiga binoan, raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan. Strategiyaning asosiy maqsadi esa elektron hukumat xizmatlarini keng joriy qilish va amalda qo'llash, aholining raqamli savodxonligini oshirish, va raqamli texnologiyalarni barcha hududlarga yuqori sifat va tezlikda yetkazib berishlik bilan raqamli tengsizlik va raqamli bo'linishni oldini olishdan iboratdir.

Muayyan ijtimoiy ne'matlarning notekis taqsimlanishi va ulardan kerakli foydalanilmaslik jamiyatda ijtimoiy xavflar sodir bo'lish ehtimolini oshiradi [2]. Tadqiqotning

⁹⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son. Manba: www.lex.uz

dastlabki bosqichida tegishli talablarga javob beruvchi (iqtiboslar soni va RSCI, Oliy attestatsiya komissiyasi, WoS, Scopus tomonidan indeksatsiyalangan) raqamli tengsizlik bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar o'rganildi. Tizimli tahlil natijasida A.Van Darsen va A.van Deyk [3] tomonidan taklif qilingan yondashuv raqamli tengsizlikni eng to'liq aniqlashi va o'lchash imkonini berishi aniqlandi. Ushbu yondashuvga ko'ra, raqamli tafovut uch darajada bo'lishi mumkin: internet va AKTdan foydalanish darajasi; foydalanuvchilarning raqamli savodxonlik darajasi; ish va turmushda raqamli texnologiyalardan to'laqonli foydalanishdan hosil bo'luvchi ijtimoiy imtiyozlar.

Metodologiya:

Raqamli tengsizlik darajasini tahlil qilish uchun quyidagi ko'rsatkichlarni bilish lozim: turli texnik vositalarning aholida mavjudligi va ulardan foydalanish darajasi, axborot vositalaridan foydalanish savodxonligi va ularni o'rganishda ijtimoiy yordamning mavjudligi, axborot vositalaridan maqsadli foydalanish darajasi. Raqamli tengsizlikni keltirib chiqaruvchi omillar 1-jadvalda batafsil keltirilgan.

1-jadval

Aholining AKT vositalaridan foydalanish omillari, sabablari va uning aholi turmushigata'siri⁹⁹

Omillar		Mezonlar
Ta'minlovchi	To'xtatuvchi	
Texnik vositalarning mavjudligi, Internetga mustaqil ravishda ulana olishlik, turmush tarziga pozitiv ta'siri	Internettan foydalanish uchun motivatsiyaning yetishmasligi, ko'nikmalarnik yetishmasligi, texnik vositalarning yetishmasligi, xavfsizlik nuqtai nazarlari	Joylar: shahar, qishloq, chekka hududlar, viloyatlar, tarmoq foydalanuvchilarning ijtimoiy-demografik xususiyatlari
Internet orqali tovar va xizmatlarni sotib olish va buyurtma berishdan bosh tortish sabablari	Davlat va munisipial xizmatlarni qabul qilishdan bosh tortish	Internet: jinsi, yoshi, ma'lumoti, ish bilan bandlik darajasi
Shaxsiy ma'lumotlarni sir tutish, ishonchning yo'qligi, kerakli ko'nikmalarga ega bo'lmaslik, shaxsiy sotuvni afzal ko'rish	Shaxsiy muloqotni afzal ko'rish, qog'ozdagi hujjatlarni shaxsan taqdim qilish ehtiyojlari	

Raqamli tengsizlik vujudga kelish sabablari orasida O'zbekistondagi hududlarda raqamli iqtisodiyotning texnologik infratuzilmasini rivojlantirishning asosiy qismi davlat byudjet mablag'lari hisobiga amalga oshirilishi, bu esa respublikaning barcha hududlarida AKTning teng va barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishini keltirish mumkin. Buning natijasida hududlar kesimida raqamli texnologiyalar joriy etilishida katta tafovutlar paydo bo'lishi, hududlarda yuqori texnologiyali kompaniyalarning yetarli darajada rivojlanmasligiga olib kelishi hamda axborot telekommunikatsiya bozorida raqobat darajasining pastligi tarmoqlar rivojlanishining asosiy muammosiga aylanadi.

⁹⁹ Л.С.Бабынина. Цифровое неравенство: причины и последствия. Источник: <https://digital.msu.ru/wp-content/uploads>

Tahlil va natijalar:

So'nggi yillarda aholining internet tarmog'idan foydalanish ulushi keskin oshdi, biroq hududlar kesimida bu ko'rsatkich bir biridan farqlanadi, bu esa raqamlashtirishning tengsiz taqsimlanganligini ko'rsatadi (2-jadval).

2-jadval

Hududlar kesimida Internet tarmog'iga ulangan abonentlar soni¹⁰⁰
(yil oxiriga; ming birlik)

Hududlar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
O'zbekiston Respublikasi	8 339,1	9 626,8	11 168,0	13 321,7	16 386,2	19 981,0	22 987,2	26 723,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	501,3	526,4	606,8	767,9	922,3	1 071,9	1 234,2	1 346,6
Andijon	621,5	731,1	842,0	991,3	1 236,5	1 484,2	1 790,6	2 019,8
Buxoro	430,9	482,6	547,3	694,0	855,2	1 011,2	1 204,5	1 383,0
Jizzax	270,9	304,4	371,3	468,2	569,1	667,2	794,1	895,9
Qashqadaryo	489,3	578,5	702,5	877,8	1 162,4	1 440,9	1 696,2	1 905,5
Navoiy	276,2	312,7	350,4	442,5	553,8	647,1	761,8	876,4
Namangan	523,5	621,4	749,8	961,5	1 198,3	1 379,5	1 637,0	1 863,9
Samarqand	758,2	865,0	1 018,7	1 225,7	1 505,9	1 795,4	2 132,5	2 407,4
Surxondaryo	372,2	433,5	551,5	721,4	958,6	1 151,5	1 323,5	1 538,2
Sirdaryo	212,4	229,8	284,6	349,1	441,4	505,7	595,4	673,0
Toshkent	273,6	353,1	352,3	506,7	1 007,7	1 255,2	1 483,8	1 688,8
Farg'ona	751,9	881,4	1 048,0	1 245,5	1 552,3	1 937,4	2 872,3	3 411,7
Xorazm	391,8	448,5	573,3	710,2	872,1	1 012,9	1 185,9	1 328,4
Toshkent sh.	2 465,3	2 858,3	3 169,7	3 359,9	3 550,6	4 620,9	4 275,4	5 385,0

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2022-yilda internet tarmog'iga ulangan abonentlar soni Toshkent shahrida umumiy miqdorning 20%ini tashkil qilsa, Jizzax viloyatidagi holat 3% ni tashkil qiladi.

3-jadval

Yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmi
(joriy narxlarda, mlrd. so'm)

Hududlar	2018	2019	2020	2021	2022
O'zbekiston Respublikasi	426 641,0	532 712,5	605 514,9	738 425,2	888 341,7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	15 622,6	19 557,0	21 661,9	25 681,8	29 925,4
Andijon	27 017,7	33 581,3	38 008,5	43 332,5	54 464,0
Buxoro	21 817,4	27 963,2	31 334,2	38 350,1	45 797,3
Jizzax	12 715,6	16 056,1	18 441,7	23 274,3	27 140,8

¹⁰⁰ www.stat.uz ma'lumotlari asosida tuzildi.

Qashqadaryo	26 438,9	32 223,0	35 351,5	42 560,2	49 520,8
Navoiy	22 573,3	36 224,3	49 780,4	58 730,3	66 685,4
Namangan	18 809,6	23 764,0	27 863,0	34 194,1	41 098,2
Samarqand	32 681,7	38 765,9	43 023,2	52 893,6	62 440,3
Surxondaryo	18 592,5	22 288,1	24 625,6	29 693,2	34 858,5
Sirdaryo	8 532,7	11 865,2	12 803,8	15 071,5	18 136,8
Toshkent	39 989,9	54 759,3	64 407,6	82 221,8	93 433,1
Farg`ona	27 523,9	32 520,8	37 216,2	47 760,5	55 972,1
Xorazm	15 900,1	19 129,1	21 315,4	26 464,3	31 963,1
Toshkent sh.	63 509,2	84 720,4	95 247,8	121 779,8	147 414,6

Hududlarning iqtisodiy ko'rsatkichlari, jumladan, YaIM hajmi (3-jadval) va raqamli texnologiyalar bilan ta'minlanganlik darajasi (4-jadval) ko'rsatkichlari statistik tahlil asosida o'rganilganda, ular o'rtasida bog'liqlik borligi ma'lum bo'ldi. Bunda, Pirson koeffitsiyenti 0.89 ni tashkil etib, bu ikki ko'rsatkich orasidagi yuqori bog'liqlik darajasini ko'rsatdi.

4-jadval

Korxonalar va tashkilotlarda Internetga ulangan kompyuterlar soni (yil oxiriga, birlik)

Hududlar	2018	2019	2020	2021	2022
O'zbekiston Respublikasi	358 003	413 417	441 913	538 933	667 842
Qoraqalpog'iston Respublikasi	15 431	17 788	21 882	23 958	31 555
Andijon	14 699	17 830	20 173	22 450	26 791
Buxoro	16 041	19 513	23 101	28 666	33 826
Jizzax	14 200	14 822	9 251	19 924	20 314
Qashqadaryo	14 857	18 006	18 631	27 573	43 673
Navoiy	14 490	17 686	18 246	21 025	28 631
Namangan	13 800	17 292	20 408	22 960	34 032
Samarqand	26 955	32 001	33 970	39 367	58 895
Surxondaryo	8 611	9 323	8 840	14 509	24 329
Sirdaryo	6 327	7 849	10 245	12 753	13 705
Toshkent	23 393	29 228	36 050	45 031	52 032
Farg'ona	18 449	21 508	27 590	32 638	38 029
Xorazm	11 962	14 811	17 600	20 297	25 788
Toshkent sh.	158 788	175 760	175 926	207 782	236 242

Xulosa va takliflar:

Xulosa qilib aytganda, raqamli tengsizlikning yuqorida muhokama qilingan iqtisodiy o'sishga ta'sir qilish kanallariga asoslanib, biz umumiy tarzda raqamli tengsizlikni bartaraf etish iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir qiladi, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Ammo shu bilan birga, agar mamlakat raqamli texnologiyalarning tarqalishiga tayyor bo'lmasa yoki

hududlarda raqamli tengsizlik katta ko'rsatkichlarda bo'lsa, bu iqtisodiy o'sishning sekinlashishiga olib kelishi ham mumkin.

Shunday qilib, iqtisodiy o'sish drayverlarini hududlar kesimida o'rganilayotganda, raqamli tengsizlik ko'rsatkichlarini ham e'tiborga olish, hamda iqtisodiy rivojlanish uchun kerakli chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev// Tarmoq va hududlarda raqamli iqtisodiyot hamda elektron hukumatni joriy qilish masalalari bo'yicha videoselektoridagi nutqidan//22.09.2023

2. Жадан И.Э. Социальные риски в цифровой экономике // Гуманитарный научный журнал. 2018. №1. С. 20-26.

3. Van Deursen A., van Dijk J. The first-level digital divide shifts from inequalities in physical access to inequalities in material access. *New Media and Society*. 2018; 21(2): 507–526. DOI: <https://doi.org/10.1177/1461444818797082>.

4. "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son.

5. "O'zbekiston-2030" strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son.

6. Квасникова М. А. Цифровое неравенство и его влияние на социально-экономическое развитие регионов в России // Социально-политические исследования. 2020. № 1 (6). С. 43–58. DOI 10.20323/2658-428X-2020-1-6-43-58

7. Меликян А.А. Детерминанты цифрового неравенства на примере регионов России // Российский экономический журнал. 2023. № 1. С. 60–79. https://doi.org/10.52210/0130-9757_2023_1_60

8. www.lex.uz

9. www.stat.uz



РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ВА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ
DIGITAL ECONOMY AND INFORMATION TECHNOLOGY
ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА И ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

Электрон илимий журнал | Electronic scientific journal

Muharrirlar:
Yaxshiyev H.T.
Matxo'jayev A.O.

Musahhih:
Matxo'jayev A.O.

Tehnik muharrir:
Mirzayev J.O'.

Litsenziya AI № 2537 08.02.2022 y. Bosishga ruxsat etildi 19.10.2023.
Qog'oz bichimi 60x84 ¹/₈. Shartli bosma tabog'i 19,9. Raqamli bosma.
Adadi 50 nusxa. №16/10-2023 - sonli buyurtma.

“Zarafshon Foto” MCHJning matbaa bo'limida chop etildi.
100164, Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek tumani, Shahriobod ko'chasi, 3-uy.

CONFERENCE "GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC TRENDS" 19-20 OCTOBER

1st DIRECTION: TRENDS AND PROSPECTIVE DIRECTIONS OF GLOBAL ECONOMIC DEVELOPMENT.

CONFERENCE "GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC

TRENDS"

19-20 OCTOBER 2023

TASHKENT STATE

UNIVERSITY OF ECONOMICS,

TASHKENT, UZBEKISTAN

CONFERENCE "NEW2AN, ICFNDS and ICDSIS"

Parallel conferences

CONFERENCE "IFRS" ФОРУМ

DEVELOPMENT STRATEGY:

GLOBAL ECONOMIC TRENDS

"IFRS"

НОМЛИ

КОНФЕРЕНЦИЯ

CONFERENCE "GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC

TRENDS"

TASHKENT STATE

UNIVERSITY OF ECONOMICS

ЎНАЛИШ: ГЛОБАЛ ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛИ ЎНАЛИШЛАРИ. "Глобал ва миллий иқтисодиёт трендлари" номли конференция

PARALLEL CONFERENCES

"NEW2AN, ICFNDS and ICDSIS"

AND ICDSIS



- Conditions for improvement
- Corporate Accounting
- Institutional problems
- Training personnel for
- Business environment
- Digital technologies in

CONFERENCE

TRENDS" CONFERENCE 19-20 OCTOBER



+998 71 239-28-94 <http://dgeconomy.tsue.uz/>

dgeconomy_tdiu@mail.ru, dgeconomy@tsue.uz

100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.

ФОРУМ

- Gender Equality
- Industry 4.0
- Sustainable Agricultural Development

- Digit
- Gree
- Envir
- Alter
- Artif
- digit